



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 2

Published: 10.02.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

SO‘Z BIRIKMASI VA UNING TURLARI

Akramova Yulduz Isroilovna

Toshkent Oriental Universiteti

Linvistika (ingliz tili) fakulteti

2-bosqich magistranti

Uzbekistan

y1689909@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘z va so‘z birikmalarining ta‘rifi, ularning xususiyatlari va turlari haqida aytib o‘tilgan. Bundan tashqari so‘z birikmalarining tarjima sohasidagi o‘rni va ahamiyati ham alohida misollar va ta‘riflar bilan tushuntirib o‘tilgan. So‘z birikmalarining gap, so‘z, matndan farqi aytib qiyoslab berilgan. O‘zbek tilida so‘z birikmasining amaliy ahamiyati va tilshunoslik fanidagi o‘rni alohida ta‘kidlab ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, so‘z, so‘z birikmasi, gap, xususiyat, kognitivlik, birikma, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, mantiq, ega, kesim.

Аннотация: В данной статье дается определение слов и словосочетаний, их характеристика и типы. Кроме того, на конкретных примерах и определениях поясняется роль и значение словосочетаний в сфере перевода. Сравняется разница между словосочетаниями и предложениями, словами и текстами. Подчеркивается практическое значение словосочетаний в узбекском языке и их роль в лингвистике.

Ключевые слова: родной язык, слово, словосочетание, предложение, характеристика, когнитивный, сочетание, адаптация, контроль, союз, логика, притяжательный, причастие.

Abstract: This article describes the definition of words and word combinations, their characteristics and types. In addition, the role and importance of word combinations in the field of translation is explained with specific examples and definitions. The difference between word combinations and sentences, words, and texts is compared. The practical importance of word combinations in the Uzbek language and their role in linguistics are emphasized.

Keywords: native language, word, word combination, sentence, characteristic, cognitive, combination, adaptation, control, conjunction, logic, possessive, participle.

Language: Uzbek

Citation: Akramova, Y. (2025). WORD COMPOUND AND ITS TYPES. Universal International Scientific Journal, 2(2), 25–31. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1433>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14859709>

Google scholar: https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=50%E2%80%98+BIRIKMASI+VA+UNING+TURLARI&btnG=

KIRISH

Dunyodagi fanlarning eng qadimiylaridan biri - tilshunoslik necha o'n asrlardirki, til deyiladigan tilsimning tabiatini, tub mohiyatini tushunish va tushuntirish yo'lida tinimsiz izlanadi. Ayni izlanishlarning hosilasi o'laroq bu fanda xilma-xil yo'nalishlar, ilmiy qarashlar nuqtayi nazarlarning yuzaga kelganligidan bugun bexabar bo'lgan tilshunos yo'q. Shu bois keyingi yillarda lisoniy qurilishning umumiy qonuniyatlarini o'zbek tili materiallari asosida yangicha tadqiq etish va tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar silsilasi yuzaga keldi. Bu izlanishlarning salmog'i kundan kunga oshib bormoqda. Sintaksis grammatikaning bir qismidir. Grammatika so'z tuzilishini va gap tuzilishini, demak, tilning Grammatik qurilishini o'rgatadigan fandır. Grammatik qurilish tilning asoslaridan biridir: har bir

tilning negizi uning grammatik qurilishi bilan leksikasidir.

Grammatika morfologiya va sintaksisni o'z ichiga oladi. Morfologiya so'zning strukturasi: so'z formalarini, ularning hosil bo'lish yo'llarini, so'zning nutqda o'zgarish qoidalarini belgilaydi – so'zlarning morfema sostavini va leksik-grammatik katargoliyalarini, so'z turkumlarini o'rgatadi. Morfologiya odatda so'z yasaliş masalalarini ham tekshiradi; sintaksis esa so'z birikmasida va gapda so'zlarning birikish yo'llarini, gapning strukturasi, tiplarini, gap bo'laklarini tekshiradi. So'zning o'z formasini o'zgartirishi odatda uning boshqa so'z bilan bog'lanishini ko'rsatadi. Masalan, uning daftari, maktabga bor. Yana bir misol: kelishik affikslari morfologiyada so'zning turli formalari sifatida o'rganiladi, sintaksisda esa bu kabi

formalarning qo'llanishi – so'z birikmasi va gapdagi vazifasi tekshiriladi, ular sintaktik munosabatning vositasi sifatida qaraladi. So'zning har bir konkret formasi butun sistemaning bir ko'rinishidir. Har bir gapda ma'lum funksiyani bajaruvchi so'z har gal shu ayrim formaga ega bo'ladi. So'zlar turli formalarda o'zaro bog'lanib, o'z morfologik xususiyatlaridan tashqari, ma'lum sintaktik xususiyatlarga ega bo'ladi: tilning fikr bayon qilish sistemasida biror grammatik funksiyani bajaradi (ega, kesim va boshqalar). Demak, morfologiyadagi so'z turkumlari nutqda gap bo'laklari vazifasini bajaradi. Bu narsa so'z turkumlari bilan gap bo'laklarining bog'lanishini ko'rsatib turadi.

Nutqda, gapda so'zlar ma'lum grammatik qoidalar asosida bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Masalan, uning qizi (gapirdi), yosh bola (yugurdi), sekin gapirdi. Misollardagi har bir juft grammatik butunlikni hosil qilgan bo'lib, yaxlit, biroq o'z ichida qismlarga bo'linadigan tushunchani, bir butun tushunchani bildiradi. Bu kompleksdagi – qo'shilmadagi so'zlarning aloqasi grammatik jihatdan shakllangadir. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z dan tuzilib, bir grammatik butunlik, semantik yaxlitlik tashkil qilgan har bir kompleks so'z birikmasi sanaladi. Nutqdagi har qanday butunlik bir so'z birikmasi bo'lavermaydi, bu bog'lanishning boshqacha ko'rinishlari ham bor. Moslashuv. Bunda bog'langan har ikki so'z bir-biriga muvofiqlashib, tobe so'z shu aloqaga mos hokim so'z formada

keladi; ulardan birining o'zgarishi bilan boshqasi ham o'zgarib, shunga mos formaga o'tadi – o'z shakllanishini unga barobarlashtiradi. Masalan, terimchining hikoyasi. Qaratqich bilan qaralmish moslashuv yo'li bilan bog'lanadi; shaxs va sonda moslashadi. Bunday tobelanishning asosiy xususiyati tobelanish bir qismning boshqasini aniqlashga xizmat qildirishidir. Tobe so'z bilan hokim so'z bir-biriga moslashadi, harakat, belgi va predmetning qaysi predmetga tegishliligi ko'rsatiladi. Masalan, mening vatanim, gullarning guli, talabalarning o'qishi. Gullarning guli - Nargis . Bunda guli (hokim) so'z talaba bilan gullarning (tobe so'z) qaratqich kelishik qo'shimchalarini olib kelgan. Dutorimning torlari qo'sh bulbuldek sayraydi kabi. Moslashuv hodisasi so'z birikmasining doirasi bilangina cheklanmaydi. Ega va kesim moslashuv yo'li bilan bog'lanadi.

Bunday birikma “qaratuvchi va qaralmish” qolipida tuziladi; birinchi a'zo ot, ot tur yoki otlashib kelgan leksema bilan ifodalanadi, qaratqich kelishigida bo'ladi. Shunday leksema shakl sintaktik jihatdan ikkinchi a'zoga bog'lanadi. Ikkinchi a'zoga birinchi a'zo bilan sintaktik bog'lanish tufayli nisbatlovchi qo'shiladi; nisbatlovchidan oldin sonlovchi qatnashadi, birlik yoki ko'plik sonlovchisi obyektiv voqelikka ko'ra tanlab qo'shiladi; turlovchi esa birikmaning boshqa bir leksema yoki birikma bilan sintaktik bog'lanishi natijasida qo'shiladi, shunga ko'ra ikkinchi a'zo (birikma yaxlitligicha)

asli leksema (birikma) holatida bo'ladi, leksema shaklga (birikma shaklga) keyingi sintaktik bog'lanish natijasida aylanadi: hovlining o'rtasi, cholning nabirasi- kabi. a'zo munosabati jihatidan qaralmishdan anglashiladigan predmet yoki belgi qaratuvchidan anglashiladigan predmetga (predmet tasavvuridagi belgiga) tegishli ekani (nisbat berilayotgani) ifodalanadi: o'rta hovliga, nabira cholga tegishli. Qaratuvchili birikma ifodalaydigan ma'nolar deb xoslik, butunning bo'lagi, to'dadan ajratilgan qism, o'ringa, vaqtga munosabat ma'nolari ta'kidlanadi. Asli bu ma'nolar – birikmaning ma'nolari emas, balki qaratuvchi, qaralmish bo'lib keladigan leksemalardan anglashiladigan ma'nolar.

Qaratuvchili birikmada turlovchilar paradigmasining bir vakili-qaratqich kelishigi bilan nisbatlovchilar paradigmasi morfemalari orasidagi bog'liqlik namoyon bo'ladi. Bunda kelishik sintaktik aloqani ta'minlashda qatnashadi va sintaktik vazifa ko'rsatkichi bo'ladi; nisbatlovchi esa sintaktik aloqani ta'minlashda qatnashadi, lekin shakl o'zgartiruvchi ekanidan qat'i nazar, sintaktik vazifaga nisbatan betaraf bo'ladi. Qaralmishga nisbatlovchi qaratuvchidan anglashiladigan shaxs, son, modal ma'nolarga muqobil holda tanlab qo'shiladi. Qaralmishga qaysi nisbatlovchi qo'shilishini qaratuvchining kelishik shakli emas, balki kelishik qo'shiladigan asos, shu asosdan anglashiladigan shaxs, son, modal ma'no belgilaydi: mutanosiblik asosdan anglashiladigan grammatik

ma'nolar bilan morfema (nisbatlovchi) ifodalaydigan ma'nolar orasida voqe bo'ladi.

Qaratuvchi tarkibidagi kelishik shakli va qaralmish tarkibidagi sonlovchi mutanosiblik aloqasida qatnashmaydi. Mutanosiblik qaratuvchi bilan qaralmishning grammatik shakllarida voqe bo'lmaganligi sababli bunday birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa moslashuv emas, balki muvofiqlashuv deyiladi (Rus tilshunosligida ega bilan kesim orasidagi bunday aloqa koordinatsiya deb nomlanadi: lot. co(n) - birgalikda, ordinatio - "tartibli joylashuv". Bunday sintaktik aloqaga sootvetstviye ham deyiladi). Qaralmishga qaysi nisbatlovchining qo'shilishi qaratuvchining qanday turkum leksemasi bilan ifodalanishiga, qisman uning grammatik shakliga bog'liq:

1. Qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida qaralmishga shu olmoshga mutanosib nisbatlovchi qo'shiladi: mening uy + im- , mening uylar +im- , sening uy + ing- , sening uylar + ing- , uning uy + i- , uning uylar + i- ,bizning uy + imiz- , bizning uylar + imiz- kabi.

2. Qaratuvchi ot leksema bilan, boshqa turkum leksemalarining ot tabiatlituri, shuningdek otlashib kelgan holati bilan ifodalanganida qaralmishga III shaxs nisbatlovchisi qo'shiladi:

a) ot leksema bilan ifodalanishi: uyning devor +i- , uylarning devor +i-, uyning devorlar + i - , uylarning devorlar + i- kabi;

b) fe'ning otdosh shakli bilan ifodalanishi: rozi qilishning yo'l + i- , rozi qilishning yo'llar + ikabi;

d) olmoshning ot turlari bilan ifodalanishi: kimning kitob + i- , kimlarning kitob + i-, kimning kitoblar + i- , kimlarning kitoblar + i- , allanarsa-ning sharpa + si- , allanarsalarning sharpa + si- , allanarsaning sharpalar + i- , allanarsalarning sharpalar + i- kabi;

e) boshqa turkum leksemasining otlashib kelgan holati bilan ifodalanishi: yaxshining fazilat + i- , yaxshilarning fazilat + i-, yaxshining fazilatlar + i- , yaxshilarning fazilatlar + i- ; buning qilig' + i- , bularning qilig' + i- , buning qiliqlar + i- , bularning qiliqlar + i- kabi;

f) ikki va undan yuqori miqdorni anglatadigan miqdor son, shuningdek hamma- kabi leksema bilan ifodalanishi: o'ning yarm + i- , hammaning fikr + i kabi.

3. Qaratuvchi bo'lib ko'plik ma'nosi ifodalanadigan jamlovchi son, hammakabi leksema kelganida kelishikdan oldin odatda ko'plik nisbatlovchisi qo'shiladi: ikkala + miz + ning istag + imiz- , ikkala + ngiz + ning istag + ingiz- , ikkala + si + ning istag + i- ; hamma + miz + ning istag + imiz- kabi.

Qaratuvchi tarkibidagi nisbatlovchidan ko'rinib turibdiki, bunday qurilma asli uch a'zoli: bizning ikkalamizning istagimiz- kabi. Bunday uch a'zoli qurilma alohida ta'kidlash zarur o'rinda-gina ishlatiladi; boshqa o'rinlarda ikki a'zoli qurilma ishlatiladi, shu yo'l

bilan uslubiy g'alizlik, ortiqchalik bartaraf qilinadi. Bunday qaratuvchi bilan qaralmish tarkibiga nisbatlovchilarning ko'plik shakli o'zaro moslashib qo'shiladi. Bu yerdagi moslashuv muvofiqlashuv aloqasi tarkibida ichki hodisa sifatida voqe bo'ladi.

4. Yuqoridagi bandda tasvirlangani kabi hodisa qaratuvchi o'z- ta'kid birligi bilan ifodalanganida ham voqe bo'ladi; yuqoridagi ifodalanishdan asosiy farqi shuki, bu yerda nisbatlovchilarning birlik shakllari ham ishlatiladi: o'z + im + ning uy + im- , o'z + imiz + ning uy + imiz- kabi. Bunday qaratuvchi ta'kidma'nosini ifodalashgagina xizmat qiladi. Ikkinchi farq shuki, bunday vazifada kelgan o'z leksemashakli grammatik ko'rsatkich, shu jumladan nisbatlovchi qo'shilmagan holda ham keladi: o'z + im + ning uy + im- - o'z uy + imkabi. Bunda o'z leksemashakli tashqi ko'rinishda sifatlovchini eslatadi.

O'zinning uyim- birikmasida oldingi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi keying a'zo tarkibidagi nisbatlovchiga o'zaro moslashib qo'shiladi, natijada ortiqchalik voqe bo'ladi. Bunday ortiqchalik tilshunoslikda pleonazm deyiladi (yunoncha pleonasmus "ortiqchalik"). Tilning tejamkorlik qoidasiga binoan oldingi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi tushiriladi, ayni vaqtda qaratqich kelishigi affiksi ham tushiriladi, chunki kelishik affiksi o'zta'kid birligiga bevosita qo'shilmaydi.

Qaratuvchi qaralmishsiz ishlatilmaydi, chunki qaratqich kelishigi-

ning o'zi doirasida tugallik bo'lmaydi, qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi bilanbirgalikda-gina grammatik shakl tugal tus oladi. Qaralmish ham asosan qaratuvchi bilan birgalikda ishlatiladi. Faqat qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida, qaratuvchi nutqning oldingi qismida aniq ifodasini topganida bunday qaratuvchini tushirish, keltirmaslik mumkin: mening uyim- birikmasining birinchi a'zosi tushirilib, uyim- tarzida ishlatilishi kabi.

Bunday tushirishga asos bor: kishilik olmoshi leksik ma'no anglatmaydi, faqat shaxs, son, o'rni bilan modal ma'noni – grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Xuddi shu grammatik ma'nolarni nisbatlovchi ham ifodalaydi. Natijada o'ziga xos pleonazm hosil bo'ladi. Bu yerdagi pleonazm qaratuvchi vazifasidagi leksema shaklni ishlatmaslik bilan bartaraf qilinadi, natijada birikmaga teng holat yo'qoladi. Ikkinchi a'zoda qaralmishlik

holati yo'qolmaydi: nisbatlovchi bunga yo'l qo'ymay Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mantiq urg'usi tushganida, shuningdek boshqa ayrim talablarga ko'ra bunday ifodalanadigan qaratuvchi tushirilmaydi: Mening singlim – a'lochi kabi. Tushirilgan qaratuvchini zarur o'rinda bemalol tiklash mumkin: Singlim – a'lochi – Mening singlim – a'lochi kabi.

XULOSA

Xulosa qilib aytaydigan bo'lsak, moslashuvli so'z birikmalarida faqatgina shakliy butunlik emas, ma'noviy butunlik ham ahamiyatga ega. Qaratqich kelishigi tobe so'zni hokim so'zga, egalik qo'shimchasi hokim so'zni tobe so'zga bog'lash uchungina xizmat qiladi, xolos. Unga tegishlidek tuyulgan ma'nolar qolipni to'ldirayotgan leksemalarning ma'noviy mohiyati bilan bog'liq bo'lib, mazkur qo'shimchalar namoyon qiluvchi vositalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hojiyev A. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. – Toshkent: "O'zbek tili va adabiyoti jurnali", 2007. 3-4 – betlar
2. Hojiyev A. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. – Toshkent: "O'zbek tili va adabiyoti jurnali", 2007. 3-4 – betlar
3. Nurmonov A., Sarimsoqov B. Til sistemasida so'zlarning o'rni va so'zlarni turkumlarga ajratish, 1999.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, 2006.
5. Sayfullaeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 2010.
6. Кононов А.Н. Грамматика свременного узбекского литературного языка. М., Л., 1960. 77- стр

7. Alimova D. Soʻz va uning xususiyatlari:.. ziyonet.uz. – Samarqand, 2011.

8. Fayzullayev M. Oʻzbek tilida soʻz turkumlari tasnifi masalalari: ...ziyonet.uz . – Buxoro, 2014. Shakarova N. Oʻzbek tili morfologiyasining shakllanish tamoyillari(zamonaviy tilshunoslik materiallari asosida): Filol.fan.nomz.diss . – Samarqand, 2012.